

## "DIPLOMATIYA TILI: SIYOSIY TARJIMADAGI "NOZIK NUQTALAR" VA "STRATEGIK XAVFLAR"

Muallif: Karimov Suhrob Abdurahmonovich  
Termiz davlat universiteti

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada siyosiy matnlar tarjimasining o'ziga xosligi, ushbu jarayonning nozik jihatlari hamda tarjimonning siyosiy xushyorligi kabi dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Siyosiy diskursda terminologik aniqlik va diplomatik etikaning o'rni tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: siyosat, tarjima, diplomatiya, siyosiy "farosat", siyosiy xushyorlik, neytrallik.

Author: Karimov Suhrob Abdurahmonovich  
Termez State University

Title: "The Language of Diplomacy: 'Fine Points' and 'Strategic Risks' in Political Translation"

Abstract: This article discusses the specific characteristics of translating political texts, the intricacies of this process, and pressing issues such as the political vigilance of the translator. The role of terminological precision and diplomatic ethics in political discourse is analyzed.

Keywords: politics, translation, diplomacy, political "acumen," political vigilance, neutrality.

### I. KIRISH (INTRODUCTION)

Siyosiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalardan ajralib turuvchi asosiy jihati — bu til va mafkura (ideologiya) o'rtasida kechadigan "to'qnashuv" hisoblanadi. Ma'lumki, dunyoda turli xil tilli xalqlar bo'lishi bilan bir qatorda, ana o'sha xalqlar o'zlari uchun yo'l sifatida tanlagan siyosiy ideologiyalar ham mavjud. Tabiiyki, ushbu mafkura tarafdorlariga tegishli har turli qarashlarni ikkinchi tilga o'girish tarjimondan o'ziga xos diplomatik mas'uliyat talab qiladi.

Endi tarjimon nafaqat bir tildan ikkinchi tilga o'giruvchi vositachi, balki o'ziga yuklatilgan vazifani to'liq anglagan holda tomonlar o'rtasida muvozanatni saqlab turuvchi "diplomatik farosat" sohibi bo'lmog'i lozim. Xuddi shunday qobiliyatga ega tilmochgina ikki davlat yoki tomonlar o'rtasida ishonch va barqarorlikni ta'minlay oladi. Siyosiy davralarda tarjimon "ko'rinmas ko'prik" rolida bo'lsa-da, uning har bir harakati nihoyatda ahamiyatlidir. U nafaqat "yashirin ko'prik", balki "shaffof oyna" rolini ham ijro etadi. Siyosiy tarjimon hech qanday holatda o'z qarashlari, siyosiy tarafdorligi yoki ichki kechinmalarini tarjima jarayoniga aralashtirmasligi kerak. U muallif aytgan har qanday fikrni, garchi u keskin bo'lsa ham, diplomatik etikaga mos ravishda asli kabi yetkazishi muhim ahamiyat kasb etadi.

## II. TERMINOLOGIK VA LEKSIK TAHLIL

Siyosiy munosabatlarda ko'p uchraydigan barqaror birikmalar (klishe) ham tarjima jarayonida muhim e'tibor talab qiluvchi omillardan sanaladi. Siyosiy nutq va rasmiy bayonotlar aksar hollarda "tayyor qoliplar" asosida quriladi. Bundan maqsad — diplomatik bosiqlikni ta'minlash hamda muloqotni neytral ruhda ushlab turishdir.

Masalan, "O'zaro manfaatli hamkorlik" (Mutually beneficial cooperation) klisesi nafaqat foyda haqida, balki har ikkala tomonning huquqlari teng ekanligining dalilidir. "Konstruktiv muloqot"ga keladigan bo'lsak, bu birikma tomonlar o'rtasidagi muzokaralar bir to'xtamga kelmagan bo'lsa ham, uchrashuv ijobiy ruhda o'tganini bildiradi.

## III. STILISTIKA VA PRAGMATIKA

Siyosiy munosabatlarda tarjimonda yuqori so'z boyligi bilan bir qatorda "diplomatik farosat" va siyosiy xushyorlik ko'nikmalari ham bo'lishi shart. Aks holda, tomonlar o'rtasida har xil anglashilmovchiliklar, noqulaylik va tarangliklar yuzaga kelishi hech gap emas. Ba'zan siyosatda so'zning ma'nosidan ko'ra, qanday kayfiyatda aytilgani muhim hisoblanadi. Aynan shu jabhada stilistika va pragmatika birinchi o'ringa chiqadi.

1. Evfemizmlar: Siyosiy "yumshoqlik" san'ati.

Siyosiy evfemizmlar — noqulay, baʼzan esa salbiy fikrlarni yumshoqroq, ijobiyroq va neytralroq soʻzlar bilan almashtirishdir. Bu jarayonda tarjimon muallif aytgan "achchiq" soʻzlarning asl maʼnosini tushunib tursa ham, "yumshoqlik" darajasini saqlab qolishi shart.

2. Nutq ohangi: Rasmiylik, vazminlik hamda hissiyotlarni jilovlash.

Odatda siyosiy chiqishlar, bayonotlar hamda tomonlar oʻrtasidagi shartnoma yoki kelishuv hujjatlari rasmiy koʻrinishda, vazminlikni saqlagan holda yozilgan boʻladi. Tarjimada esa tarjimon maʼno jihatdan toʻgʻri tarjima qilayotgan boʻlsa ham, ushbu ohangni buzishi diplomatik jihatdan qaltislikka olib kelishi mumkin. Siyosatchi oʻz nutqida hissiyotga berilib soʻzlagan boʻlsa ham, tarjimon ushbu nutqni rasmiy doiralarda qabul qilingan meʼyorlarga moslab tarjima qilishi lozim boʻladi.

#### IV. MADANIY MOSLASHTIRISH (ADAPTATSIYA)

Har bir davlatning oʻziga xos siyosiy institutlari (masalan: Senat, Parlament, Ombudsman) mavjud. Ularni tarjima tiliga oʻgirish uchun baʼzan izohli lugʻatdan foydalanishga toʻgʻri keladi. Siyosiy manbalar tarjimasida duch kelinadigan toʻsiqlardan biri — bu muayyan xalqning siyosiy hayotiga xos boʻlgan, boshqa madaniyatlarda muqobili boʻlmagan realiyalardir. Har bir davlatning oʻziga xos tarixiy-siyosiy yoʻli boʻlib, ularni shunchaki oʻgirish tinglovchida tushunmovchiliklar paydo qilishi mumkin. Tilmoch bunday terminlarga duch kelganda oʻzini quyidagi uch usul orqali vaziyatdan chiqarishi mumkin:

1. Transkripsiya va izoh: Agar termin xalqaro miqyosda taniqli boʻlsa, u saqlab qolinadi va qavs ichida izohi beriladi. Misol: Bundestag (Germaniya parlamenti federal majlisi).

2. Funktsional muqobil topish: Maqsadli tildagi oʻxshash institut nomini qoʻllash.

Misol: "House of Representatives" (AQSh) — "Vakillar palatasi". Bu yerda garchi oʻzbek parlament tizimi bilan farqi boʻlsa ham, funksiyasi (vazifasi) jihatidan bu terminlar tinglovchiga tushunarli hisoblanadi.

Izohli tarjima: Termining ma'nosini ochiqqlash. Misol: "Ombudsman" termini uzoq muddat davomida o'zbek tilida "Inson huquqlari bo'yicha vakil" deya izohli tarjima qilingan, hozirga kelib esa bu termin o'zlashib ulgurgan.

## V. XULOSA

### TARJIMADAGI XAVF-XATARLAR

Nihoyat, siyosiy davralarda xato qilish — bu nafaqat so'zda xato qilish degani, balki geosiyosiy xavf demakdir. Birgina noto'g'ri tanlangan so'z yoki hatto punktuatsiya (tinish belgisi) xatosi davlatlararo munosabatlarni sovuqlashtirishi, iqtisodiy taranglikni kuchaytirishi yoki tarixiy kelishuvlarni chippakka chiqarishi mumkin.

Siyosiy tarjimada tarjimon quyidagi "minalashtirilgan" hududlarni "bosib" qo'ymasligi lozim:

1. Noto'g'ri ekvivalent tanlash: Siyosatda har bir so'z o'ziga xos "vazn"ga ega. Masalan, xalqaro bitimlarda "must" (shart/majbur) so'zini "may" (mumkin/ixtiyoriy) deb tarjima qilish hujjatning siyosiy kuchini yo'qotadi yoki kamaytiradi. Masalan, 1945-yilda Potsdam deklaratsiyasiga Yaponiya bosh vazirining javobidagi "Mokusatsu" so'zi ("izohsiz qoldirmoq" yoki "e'tiborsiz qoldirmoq") ingliz tiliga "ignore" (mensimaslik/rad etish) deb tarjima qilingan. Bu esa ittifoqchilar tomonidan qat'iy rad javobi sifatida qabul qilinib, fojiali oqibatlariga olib kelgan.

Kontekstni tushunmaslik va "so'zma-so'z" tarjima: Siyosiy nutqlar ko'pincha idiomalar va yashirin ma'nolarga boy bo'ladi. Ularni tarjima tiliga so'zma-so'z o'girish mantiqsiz yoki haqoratli tuyulishi mumkin. Bunday hollarda siyosatchining hazili yoki kesatig'ini jiddiy ohangda tarjima qilish diplomatik mojaro keltirib chiqaradi. Tarjimon so'z ortidagi pragmatik maqsadni tushunishi shart.

Texnik xatolar: Siyosiy-iqtisodiy hujjatlarda raqamlar (sanksiya miqdori, chegara koordinatalari, muddatlari) eng muhim elementlardir. Bu yerda yo'l qo'yilgan kichik texnik xato davlat byudjetiga yoki hududiy yaxlitlikka daxl qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy matnlar tarjimasi — bu nafaqat til bilish, balki siyosiy xaritalar, tarixiy hujjatlar va diplomatik protokollar bilan tanish bo‘lish, o‘ta yuqori aniqlik va intellektual (aqliy) salohiyat egasi bo‘lishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

Muminov O. "Tarjima nazariyasi va amaliyoti". Toshkent, 2015.

Salimov R. "Siyosiy terminologiya va uning tarjima muammolari".

G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. "Tarjima nazariyasi". Toshkent, 2012.

Newmark, P. "A Textbook of Translation". New York: Prentice Hall, 1988.

Schäffner, C. "Political Analysis and Strategies in Translation".

Baker, M. "In Other Words: A Coursebook on Translation". Routledge, 2011

BMTning rasmiy terminologik bazasi (UNTERM): [unterm.un.org](http://unterm.un.org)